

**Yashil iqtisodiyotni barpo etishda innovatsion jozibadorlikni
oshirish yo'llari**

Turg'unov Abdulaziz

Abdusamatova Madinabonu

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Agrobiznes va
raqamli iqtisodiyot fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lif yo'naliishi
2-bosqich talabalari*

Annotation: Maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lib borayotgan energetika va ekologiya muammolari va ularni yechishda yashil iqtisodiyotning o'rni bosh masala sifatida asoslangan. Cheklangan resurslar orqali qondirishda atrof-muhitga bo'layotgan noodil xatti-harakatlar keyingi avlod kelajagini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu boisdan hozirgi kunda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni beqiyos. Maqolada shu haqida muallifning fikr va mulohazalari qayd etilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, yashil strategiya

Kirish: Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega. UNEP 2011 Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „yashil bo'lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi. Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat — bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: „Ekotizimlar va bioxilma-xillik

“iqtisodiyoti” va „Tabiiy kapital banki“) va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to‘liq xarajatlarni hisobga olish rejimi. aktivga zarar yetkazgan yoki e’tiborsiz qoldiradigan tashkilotga ishonchli tarzda qaytariladi va uning majburiyatlari sifatida hisobga olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaroriga asosan chiqarilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo‘yicha vakolatli organ etib belgilansin va unga quyidagi vazifalar yuklanishi aytilgan;

Strategiyada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha mas’ul vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;

Idoralararo kengashga, shu jumladan uning ishchi organi faoliyatini tashkil etish orqali har tomonlama ko‘maklashish;

“yashil” iqtisodiyotni bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha hisobotlar yuritishning o‘z vaqtida tashkil etilishini ta’minalash.

Quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari va maslahatchilariga — Strategiyada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish buyurilgan

Asosiy qism: Ma’lumki, hozirgi zamonda energetika va ekologiya muammolari dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda ko‘plab quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Bu yo‘nalishni izchil davom ettirish maqsadida, Taraqqiyot strategiyasini 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturida sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorlik dasturini ishlab chiqish belgilangan edi. Taqdimotda mazkur dasturda ko‘zda tutilayotgan chora-tadbirlar haqida axborot beradi.

Qayd etilganidek, bu hujjatda sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minalash bo‘yicha konsepsiya

belgilanadi. Shu asosida 25 ta strategik ahamiyatga ega korxonada yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

Bu orqali 2022-2026-yillarda sanoat tarmoqlarida 3,9 milliard kub metr tabiiy gazni, 4 milliard kilovatt soat elektr energiyasini va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash rejalashtirilmoqda. Buning natijasida har bir mahsulot tannarxida energiya ulushini 20 foizga kamaytirish maqsad qilingan.

2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulotlarning ekologik toza energiya va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etiladi.

Shu maqsadda issiqxona gazlarining chiqarilishi bosqichma-bosqich tartibga solinadi. Bunda tabiatga zararni qisqartirish ishlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralar ko‘riladi.

Shuningdek, “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini to‘liq joriy etish, bu boradagi moddalar ro‘yxatini kengaytirish va yig‘im stavkasini oshirish ham taklif etildi.

“Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni ko‘paytirish, innovatsion loyihalarni tatbiq etish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hujjatda belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishini doimiy baholab boruvchi guruh ham shakllantiriladi. Uning tarkibiga 15 ta xalqaro tashkilot va moliya institutlarining rahbarlari kiritiladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, har bir tarmoq kesimida energiya tejamkorligini oshirish, mahsulot ishlab chiqarishda energiya xarajatini kamaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi:

issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiyligi sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, “yashil” energiyadan foydalanishni ta’milashga, “yashil” ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Strategiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi:

issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiyligi hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;

sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;

yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiyligi sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;

hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65 foizdan oshirish.

Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, “yashil” energiyadan foydalanishni ta’minlashga, “yashil” ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yashil iqtisodiyotni barpo etishda avvalo, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini oshirish, shamol va quyosh elektr stansiyalari sonini ko‘paytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, suvdan foydalanishda samaradorlikni sezilarli darajada oshirish, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotda innovatsion jozibadorlikni oshirishda innovatsion loyihalarni tadbiq etish masalalariga alohida e’tibor berish, “yashil” strategiyalarni qo’llab quvvatlash, shuningdek, “yashillashtirish” sohasida ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rilishini ekosiyosat doirasidagi eng muhim dasturul amal sifatida ko‘rish samarali mexanizmga erishishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://lex.uz>

www.president.uz

<https://cyberleninka.ru>

<https://www.norma.uz>

<https://www.gazeta.uz>

<https://president.uz>